XORAZM VILOYATI YANGIARIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

221100, Yangiariq tumani, Mustaqillik ko‘chasi, 74-uy, telefon: (62)38-55-775, faks: 38-55-774

2023 - yil 23 - may 272-12-179-Q/23 Yangiariq tuman hokimligi

Yangiariq tumani hokimining 2021-yil 3-sentabrdagi 112-12-179-Q/21-sonli qarorining tegishli bandiga o‘zgartirish kiritish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 12-noyabrdagi “Birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari faoliyatiga mutlaqo yangi mexanizmlarni joriy qilish va sog‘liqni saqlash tizimida olib borilayotgan islohotlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6110-sonli Farmonidagi vazifalarni ijrosini ta’minlash, Xorazm viloyati hokimligining 2021-yil 5-martdagi Xorazm viloyatida 2021-2023-yillarda oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalarni tashkil etish yuzasidan har bir oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinika kesimida tarmoq jadvalini hamda Yangiariq tumani tibbiyot birlashmasi davlat korxonasining 2023-yil 11-maydagi 1737-sonli yozishmasini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi qonunining 6, 25-moddalariga asoslanib,

QAROR QILAMAN:

1. Xorazm viloyati hokimligining 2021-yil 5-martdagi Xorazm viloyatida 2021-2023-yillarda oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinikalarni tashkil etish yuzasidan har bir oilaviy shifokorlik punktlari va oilaviy poliklinika kesimida tarmoq jadvalini hamda Yangiariq tumani tibbiyot birlashmasi davlat korxonasining 2023-yil 11-maydagi 1737-sonli yozishmasi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Yangiariq tumani hokimining 2021-yil 3 sentabrdagi 112-12-179-Q/21-sonli qarorining 2-bandiga quyidagicha qo‘shimcha kiritilsin:

-Yangiariq tumani tibbiyot birlashmasiga qarashli “Arboblar” mahallasida joylashgan oldingi “O‘zbekiston” qishloq vrachlik punkti binosi O‘zbekiston oilaviy shifokorlik punkti qilib tashkil etilsin” deb o‘qilsin.

3. Yangiariq tumani tibbiyot birlashmasi davlat korxonasi boshlig‘i (J.Jumaniyozov), tuman hokimligi iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Bekchanov) bilan birgalikda yangidan tashkil qilinayotgan oilaviy shifokorlik punktini belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va shtatlar jadvalini ko‘rib chiqish vazifasi topshirilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Bekchanov) oilaviy shifokorlik punkti tashkil qilinishi munosabati bilan tuman mahalliy byudjetiga tegishli o‘zgartirishlar kiritsin.

5. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari I.O‘runov zimmasiga yuklatilsin

Tuman hokimi v.b. **A.Davletov**